FUQAROLIK VA IQTISODIY SUD ISHLARINI YURITISHDA MEDIATIV KELISHUV VA KELISHUV BITIMI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

G‘aniyeva Shahrizoda Bo‘ron qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

shakhrizodaganieva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritishda nizoni taraflar kelishuvi bilan tugatishning ikki shakli — mediativ kelishuv va kelishuv bitimi o‘rganiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslari tahlil qilinadi hamda Qozog‘iston va Fransiya qonunchiligi bilan solishtiriladi. Formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullari asosida ikki institut sakkiz mezon bo‘yicha qiyoslandi: tuzish ishtirokchilari, tuzish vaqti, ish yuritishga ta’siri, shakli, sud nazorati, protsessual oqibati, majburiy ijro tartibi va maxfiylik. Natijalar ikki institutni ajratuvchi asosiy belgi sud tasdig‘i ekanini ko‘rsatdi: kelishuv bitimi sud tasdiqlagach kuchga kiradi va ish yuritishni tugatadi, mediativ kelishuv esa sud tasdig‘isiz arizani ko‘rmasdan qoldirishga asos bo‘ladi, sud nazorati faqat ijro varaqasi berish bosqichida yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, mediativ kelishuv, kelishuv bitimi, fuqarolik protsessi, iqtisodiy protsess, yarashtirish tartib-taomillari, sud nazorati, ijro varaqasi, qiyosiy-huquqiy tahlil.

МЕДИАТИВНОЕ СОГЛАШЕНИЕ И МИРОВОЕ СОГЛАШЕНИЕ В ГРАЖДАНСКОМ И ЭКОНОМИЧЕСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье исследуются две формы завершения спора соглашением сторон в гражданском и экономическом судопроизводстве — медиативное соглашение и мировое соглашение. Анализируется редакция Гражданского

процессуального и Экономического процессуального кодексов Республики Узбекистан после изменений, внесённых Законом № ЗРУ-1089 в 2025 году, и проводится сравнение с законодательством Казахстана и Франции. С использованием формально-юридического, сравнительно-правового и системного методов институты сопоставлены по восьми критериям: участники, время заключения, влияние на производство, форма, судебный контроль, процессуальные последствия, порядок принудительного исполнения и конфиденциальность. Показано, что главным разграничительным признаком является судебное утверждение: мировое соглашение вступает в силу после утверждения судом и влечёт прекращение производства, тогда как медиативное соглашение без утверждения судом служит основанием для оставления заявления без рассмотрения, а судебный контроль возникает лишь при выдаче исполнительного листа.

Ключевые слова: медиация, медиативное соглашение, мировое соглашение, гражданский процесс, экономический процесс, примирительные процедуры, судебный контроль, исполнительный лист, сравнительно-правовой анализ.

MEDIATED SETTLEMENT AGREEMENT AND COURT SETTLEMENT AGREEMENT IN CIVIL AND ECONOMIC PROCEEDINGS: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

Abstract. The article examines two ways of ending a dispute by agreement of the parties in civil and economic proceedings: the mediated settlement agreement and the court settlement agreement. It analyses the Civil Procedure Code and the Economic Procedure Code of the Republic of Uzbekistan as amended by Law No. ZRU-1089 of 2025 and compares them with the legislation of Kazakhstan and France. Using formal legal, comparative and systemic methods, the two institutions are compared on eight criteria: who concludes the agreement, when it may be concluded, its effect on the proceedings, its form, judicial control, procedural consequences, compulsory enforcement and

confidentiality. The study shows that the main distinguishing feature is court approval. A court settlement takes effect only after the court approves it and ends the proceedings, whereas a mediated settlement is not approved by the court, leads to the claim being left without consideration, and becomes subject to judicial control only when a writ of execution is requested.

Keywords: mediation, mediated settlement agreement, court settlement agreement, civil procedure, economic procedure, conciliation procedures, judicial control, writ of execution, comparative legal analysis.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli[1] ekanligi belgilab qo‘yilgan. Ushbu moddadan biz har kim o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishlari bilan birgalikda nizolarni hal etishning muqobil usullaridan ham foydalangan holda nizolari bo‘yicha o‘zaro maqbul yechimga erishishlari mumkinligini tushunishimiz mumkin. Fuqarolik va iqtisodiy sudlarga kelib tushayotgan ishlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ularning ancha qismi aslida sudga yetib kelmasdan, taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan hal bo‘lishi mumkin bo‘lgan nizolardir: qarzni to‘lash, yetkazib berilgan tovar sifati, ijara haqi va aliment to‘lash kabi masalalar. Bunday nizolarni sud tartibida ko‘rish taraflardan vaqt va mablag‘ talab qiladi. Bundan tashqari, sudning hal qiluv qarori nizoning huquqiy tomonini hal qilsa ham, taraflar o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Shu muammoni hal qilish maqsadida 2018-yilda “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi[2]. 2025-yil 20-oktabrda esa O‘RQ-1089-son Qonun bilan mediatsiya

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son; 14.07.2026-y., 03/26/1158/0727-son) https://lex.uz/docs/-6445145

[2]O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi O‘RQ-482-son “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-3805227

institutini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartishlar kiritildi: jumladan, mediativ kelishuv ixtiyoriy bajarilmasa, uni majburiy ijro etish uchun sud tomonidan ijro varaqasi berish tartibi joriy etildi[3]. Amaliyot ham o‘zgarmoqda. Adliya vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yilning birinchi yarmida 18 411 ta mediativ kelishuv tuzilgan, shundan 2 897 tasi sud jarayonida[4].

Sud jarayonida nizo har doim ham hal qiluv qarori bilan tugamaydi. Fuqarolik protsessual kodeksining 44-moddasi va Iqtisodiy protsessual kodeksining 131-moddasi taraflarga kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqini beradi[5]. Bir qarashda ikki usul bir xil: nizoni taraflarning o‘zi hal qiladi. Lekin ular kim ishtirokida tuzilishi, sud ularni qanday nazorat qilishi va bajarilmasa nima bo‘lishi bo‘yicha jiddiy farq qiladi. Amaliyotda bu farqlarni bilmaslik taraf uchun qimmatga tushishi mumkin: masalan, taraf mediativ kelishuv tuzib, keyin uni ijro etish uchun qayerga va qachon murojaat qilishni bilmay qoladi.

Maqolaning maqsadi — mediativ kelishuv va kelishuv bitimining protsessual farqlarini amaldagi qonunchilik asosida aniqlash, ularni Qozog‘iston va Fransiya tajribasi bilan solishtirish va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kelishuv bitimining huquqiy tabiati Rossiya fuqarolik protsessual fanida uzoq vaqtdan beri muhokama qilinadi. S.V. Lazarev uni aralash tabiatli institut deb hisoblaydi: bir tomondan, bu o‘zaro yon berishlarga asoslangan shartnoma, ikkinchi tomondan, ish

[3]O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-1089-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-7775310

[4]Issues related to the establishment of the Tashkent International Commercial Court discussed // O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti, 2026-yil 4-sentabr. URL: https://gov.uz/en/adliya/news/view/215503

[5]O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-yanvardagi O‘RQ-460-son Qonuni bilan tasdiqlangan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-3517337, 44-modda; O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 24-yanvardagi O‘RQ-461-son Qonuni bilan tasdiqlangan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/acts/-3523891, 131-modda.

yuritishni tugatuvchi protsessual harakat. Muallifning fikricha, sud tasdiqlagandan keyin kelishuv bitimi ham moddiy, ham protsessual huquq uchun yuridik faktga aylanadi[6]. Yu.S. Kolyasnikova esa kelishuv bitimini sud tasdig‘ini talab qiladigan moddiy-huquqiy shartnoma sifatida ko‘radi va yarashtirish tartib-taomillarini tarmoqlararo institut deb ataydi[7].

Mediativ kelishuv bo‘yicha qarashlar boshqacha. M.O. Vladimirova uni fuqarolik-huquqiy tartibga solish tizimidagi kelishuv, ya’ni taraflarning fuqarolik-huquqiy bitimi sifatida tahlil qiladi[8]. S.I. Kalashnikova xususiy mediatsiya bilan sud jarayoniga integratsiyalashgan mediatsiyani farqlaydi va mediatsiya sud yurisdiksiyasini almashtirmasligini, balki uni to‘ldirishini asoslaydi[9]. Milliy adabiyotda Q.Q. Matkarimov va F.Ya. Xudayberganova fuqarolik sud ishlarida mediatsiyani qo‘llashning protsessual xususiyatlarini va advokatning mediator sifatidagi ishtirokini o‘rgangan[10].

Tadqiqotda formal-yuridik usul (FPK, IPK va mediatsiya to‘g‘risidagi qonunchilik normalarini sharhlash), qiyosiy-huquqiy usul (O‘zbekiston, Qozog‘iston va Fransiya qonunchiligini solishtirish) va tizimli tahlil usuli (ikki institutni yagona mezonlar bo‘yicha qiyoslash) qo‘llanildi.

NATIJALAR

Fuqarolik protsessida mediatsiya. FPKning 166-moddasiga ko‘ra, sud taraflarni yarashtirish choralarini ko‘radi va ularga fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida nizoni hal etishda ko‘maklashadi. Shu moddaga ko‘ra, taraflar da’vo

[6]Лазарев С.В. Мировое соглашение в гражданском судопроизводстве: дис. … канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2006.

[7]Колясникова Ю.С. Примирительные процедуры в арбитражном процессе: дис. … канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2009.

[8]Владимирова М.О. Медиативное соглашение в системе гражданско-правового регулирования: дис. … канд. юрид. наук. – 2014.

[9]Калашникова С.И. Медиация в сфере гражданской юрисдикции: дис. … канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2010.

[10]Matkarimov Q.Q., Xudayberganova F.Ya. Fuqarolik sudlov faoliyatida mediatsiyani qo‘llashning protsessual xususiyatlari va bunda advokatning mediator sifatidagi ishtiroki // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – Vol. 2, Issue 4. – B. 503–512.

tartibida yuritiladigan har qanday ish bo‘yicha mediativ kelishuv tuzishi mumkin, biroq faqat birinchi instansiya sudida, sud hal qiluv qarori qabul qilish uchun maslahatxonaga chiqqunga qadar[11]. Mediatsiya o‘tkazish to‘g‘risida kelishuv tuzilsa, sud ish yuritishni ko‘pi bilan oltmish kunga to‘xtatib turadi.

Iqtisodiy protsessda mediatsiya. IPKning 130-moddasi sud zimmasiga taraflarning kelishuviga ko‘maklashish vazifasini yuklaydi, 131-moddasi esa da’vo tartibidagi har qanday ish bo‘yicha mediativ kelishuv tuzish huquqini beradi[12]. Bu yerda ham mediativ kelishuv birinchi instansiya sudining maslahatxonaga chiqquniga qadar tuzilishi mumkin. Demak, ikki kodeks mediatsiyani sud muhokamasi bilan bog‘lashda bir xil yondashuvga ega. Iqtisodiy nizolarda bu imkoniyat ayniqsa foydali: taraflar sud qarorini kutmasdan, to‘lov jadvalini o‘zlari belgilab, tijorat aloqalarini saqlab qolishi mumkin.

Mediatsiyaning protsessual oqibatlari. FPK 122-moddasining 10^3-bandi va IPK 107-moddasining 5^3-bandiga ko‘ra, taraflar mediativ kelishuv tuzgan bo‘lsa, sud arizani ko‘rmasdan qoldiradi[13]. Agar qonunda yoki shartnomada mediatsiya tartibi nazarda tutilgan bo‘lsa-yu, da’vogar unga rioya qilmagan bo‘lsa, bu ham arizani ko‘rmasdan qoldirish uchun asos bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, mediatsiya kodekslarda faqat “yarashishga chaqiruv” emas, balki ishning taqdiriga bevosita ta’sir qiluvchi institut sifatida mustahkamlangan.

Kelishuv bitimi. FPKning 166-moddasiga ko‘ra, kelishuv bitimi fuqarolik sud ishlarini yuritishning istalgan bosqichida, shuningdek, sud hujjatini ijro etish jarayonida tuzilishi mumkin va sud tasdiqlaganidan keyingina tuzilgan hisoblanadi. 167-moddaga ko‘ra, bitimda majburiyatlarni bajarish muddati va tartibi ko‘rsatiladi; unda majburiyatni

[11]O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-yanvardagi O‘RQ-460-son Qonuni bilan tasdiqlangan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-3517337, 166-modda.

[12]O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 24-yanvardagi O‘RQ-461-son Qonuni bilan tasdiqlangan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/acts/-3523891, 130, 131-moddalar.

[13]O‘zR FPK, 122-moddasining 10^3-bandi; O‘zR IPK, 107-moddasining 5^3-bandi.

kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib bajarish, da’vodan yoki qarzdan to‘liq yoki qisman voz kechish, sud xarajatlarini taqsimlash kabi shartlar bo‘lishi mumkin[14]. IPKning 130–134-moddalari ham shunga o‘xshash qoidalarni belgilaydi; 132-moddaga ko‘ra, bitim yozma shaklda tuziladi va taraflar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanadi[15].

Ikki kodeksda ham kelishuv bitimi sud nazorati ostida. FPKning 169-moddasi va IPKning 134-moddasiga ko‘ra, bitim shartlari qonunga zid bo‘lsa yoki uchinchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qilsa, sud uni tasdiqlamaydi; IPK bitimning shart asosida tuzilganini ham alohida rad etish asosi qilib belgilagan[16]. Bitim tasdiqlansa, ish yuritish tugatiladi, u ixtiyoriy bajarilmasa sud bergan ijro varaqasi asosida majburiy ijro etiladi.

Mediativ kelishuvning ijrosi. FPK 40^{1}-bob (358^{1}–358^{5}-moddalar) va IPK esa 29^{2}-bob (232^{10}–232^{14}-moddalar) asosida mediativ kelishuv ixtiyoriy bajarilmasa, uni tuzgan taraf ixtiyoriy ijro muddati tugaganidan keyin olti oy ichida sudga ijro varaqasi berish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qila oladi. Sud nizoni qaytadan ko‘rmaydi. U faqat ijro varaqasi berishni rad etish uchun asos bor-yo‘qligini tekshiradi: kelishuv qonunga zid bo‘lsa, uning shartlari o‘zgartirilgan yoki kelishuv bekor qilingan bo‘lsa, majburiyatlar to‘liq bajarilgan bo‘lsa yoki muddat o‘tkazib yuborilgan va tiklanmagan bo‘lsa[17].

Yuqoridagi tahlil natijasida ikki institutning farqlari sakkiz mezon bo‘yicha umumlashtirildi (1-jadval).

[14]O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-yanvardagi O‘RQ-460-son Qonuni bilan tasdiqlangan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-3517337, 166, 167-moddalar.

[15]O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 24-yanvardagi O‘RQ-461-son Qonuni bilan tasdiqlangan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/acts/-3523891, 130–134-moddalar.

[16]O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-yanvardagi O‘RQ-460-son Qonuni bilan tasdiqlangan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-3517337, 169-modda; O‘zR IPK, 134-modda.

[17]O‘zR FPK, 358^{1}–358^{5}-moddalar; O‘zR IPK, 232^{10}–232^{14}-moddalar.

1-jadval. Mediativ kelishuv va kelishuv bitimining protsessual farqlari

Mezon	Kelishuv bitimi	Mediativ kelishuv
Kim ishtirokida tuziladi	Taraflarning o‘zlari; sud ularga ko‘maklashadi	Taraflar mustaqil mediator ko‘magida
Tuzish vaqti	Ishning istalgan bosqichida, sud hujjatini ijro etish jarayonida ham	Birinchi instansiya sudida, sud maslahatxonaga chiqqunga qadar
Ish yuritishga ta’siri	Alohida to‘xtatib turish asosi yo‘q	Mediatsiya o‘tkazish to‘g‘risida kelishuv tuzilsa, ish yuritish 60 kungacha to‘xtatiladi
Shakli	Yozma, imzolangan; ijro muddati va tartibi, sud xarajatlarining taqsimoti ko‘rsatiladi	Yozma; sudga alohida hujjat sifatida taqdim etiladi
Sud nazorati	Sud tasdiqlaydi; qonunga zid bo‘lsa yoki uchinchi shaxslar huquqiga daxl qilsa, rad etadi	Sud tasdiqlamaydi; nazorat faqat ijro varaqasi berishda
Protsessual oqibati	Ish yuritish tugatiladi; xuddi shu nizo bo‘yicha qayta murojaat qilib bo‘lmaydi	Ariza ko‘rmasdan qoldiriladi, davlat boji qaytariladi
Majburiy ijro	Ixtiyoriy bajarilmasa, tasdiqlash ajrimi asosida ijro varaqasi beriladi	Ixtiyoriy ijro muddati tugaganidan keyin 6 oy ichida ijro varaqasi berish to‘g‘risida ariza bilan
Maxfiylik	Sud majlisida, oshkoralik qoidalari bo‘yicha ko‘riladi	Mediatsiya maxfiylik prinsipiga asoslanadi

Manba: FPK va IPKning amaldagi tahriri asosida tuzilgan.

MUHOKAMA

1-jadvaldan ko‘rinadiki, ikki institutni ajratib turadigan asosiy belgi — sud tasdig‘i. Kelishuv bitimi sud tasdiqlaganidan keyingina tuzilgan hisoblanadi va uning kuchi sud ajrimidan kelib chiqadi. Shuning uchun bitim tasdiqlangach ish yuritish tugatiladi va xuddi shu taraflar o‘rtasida, xuddi shu predmet va asos bo‘yicha qayta da’vo qo‘zg‘atib bo‘lmaydi. Mediativ kelishuvni esa sud tasdiqlamaydi: uning kuchi taraflarning irodasidan va mediatsiya to‘g‘risidagi qonundan kelib chiqadi[18]. Mediativ kelishuvning tabiati 2025-yildan keyin o‘zgardi. Ilgari u M.O. Vladimirova ta’riflaganidek, sof fuqarolik-huquqiy bitim edi[19]: bajarilmasa, taraf yangi da’vo bilan sudga murojaat qilishi kerak edi. Endi esa uni soddalashtirilgan tartibda, ijro varaqasi orqali majburiy ijro etish mumkin. Shu sababli bugungi kunda mediativ kelishuvni oddiy shartnoma va ijro hujjati o‘rtasidagi oraliq maqomga ega institut deb baholash mumkin. Sud nazorati ham boshqa joyga ko‘chdi: u kelishuv tuzilgan paytda emas, balki ijro bosqichida va faqat taraflardan biri kelishuvni bajarmagan holda vujudga keladi. Bu K.A. Shumova ta’kidlagan ixtiyoriylik va maxfiylik prinsiplariga mos keladi[20]: kelishuv bajarilsa, uning mazmuni sudga umuman ma’lum bo‘lmaydi.

Qozog‘iston tajribasi boshqacha. Qozog‘iston Fuqarolik protsessual kodeksining 177- va 180-moddalariga ko‘ra, kelishuv bitimi ham, sud jarayonida mediatsiya orqali erishilgan kelishuv ham sud tomonidan tasdiqlanadi va ish yuritish tugatiladi[21]. Kodeksning 179-moddasi esa mediatsiyadan birinchi instansiyada, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida ham foydalanishga imkon beradi. O‘zbekistonda esa sud jarayonida mediativ kelishuv tuzish birinchi instansiya sudining maslahatxonaga chiqishi bilan chegaralangan.

---

[18]“Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ-482-son. https://lex.uz/docs/-3805227

[19]Владимирова, М. О. (2014). Медиативное соглашение в системе гражданско-правового регулирования [Дис. … канд. юрид. наук].

[20]Шумова, К. А. (2016). Принципы медиации [Дис. … канд. юрид. наук]. Саратов.

[21]Гражданский процессуальный кодекс Республики Казахстан от 31 октября 2015 года № 377-V ЗРК, ст. 177, 179, 180 // Информационно-правовая система «Әділет». URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000377

Fransiyada esa kelishuvga erishish va unga ijro kuchini berish alohida bosqichlar sifatida tartibga solingan. 2025-yil 18-iyuldagi 2025-660-son dekret bilan yangilangan Fransiya Fuqarolik protsessual kodeksining 1534-moddasiga ko‘ra, sudya taraflar roziligini olgach mediatsiya tayinlashi mumkin. Mediatsiya natijasidagi kelishuvga ijro kuchini berish uchun taraflar uni sudga tasdiqlatishi mumkin; 1544-moddaga ko‘ra, sudya kelishuv predmeti qonuniy va ommaviy tartibga zid emasligini tekshiradi, lekin uning shartlarini o‘zgartira olmaydi[22]. O‘zbekistonda kelishuv bitimi sud tasdiqlaganidan keyingina tuzilgan hisoblansa, Fransiyada sud allaqachon tuzilgan kelishuvga faqat ijro kuchini beradi.

XULOSA

Mediativ kelishuv ham, kelishuv bitimi ham fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarida nizoni taraflarning o‘zaro roziligi asosida hal qilishga xizmat qiladi. Ular vaqt va xarajatni tejaydi, taraflar o‘rtasidagi munosabatlarni saqlab qoladi va sudlarning ish yuklamasini kamaytiradi. Biroq ularning protsessual tabiati turlicha: mediativ kelishuv mustaqil mediator ko‘magida tuziladi va sud tomonidan tasdiqlanmaydi, kelishuv bitimi esa sud tasdig‘i bilan kuchga kiradi. Mediativ kelishuv arizani ko‘rmasdan qoldirishga, kelishuv bitimining tasdiqlanishi esa ish yuritishni tugatishga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son; 14.07.2026-y., 03/26/1158/0727-son)https://lex.uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. (2018, O‘RQ-1089 bilan kiritilgan o‘zgartishlar bilan). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-3517337

[22]Code de procédure civile (France), art. 1534, 1544 (dans sa rédaction issue du décret n° 2025-660 du 18 juillet 2025) // Légifrance. URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070716

3. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. (2018, O‘RQ-1089 bilan kiritilgan o‘zgartishlar bilan). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/acts/-3523891

4. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-482-son). (2018, 3-iyul). https://lex.uz/docs/-3805227

5. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-1089-son). (2025, 20-oktabr). https://lex.uz/docs/-7775310

6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2026, 4-sentabr). Issues related to the establishment of the Tashkent International Commercial Court discussed. https://gov.uz/en/adliya/news/view/215503

7. Гражданский процессуальный кодекс Республики Казахстан от 31 октября 2015 года № 377-V ЗРК. (2015). Ст. 177, 179, 180.

8. Code de procédure civile (France). (1975, modifié par le décret n° 2025-660 du 18 juillet 2025). Art. 1534, 1544. Légifrance. https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070716

9.Matkarimov, Q. Q., & Xudayberganova, F. Ya. (2022). Fuqarolik sudlov faoliyatida mediatsiyani qo‘llashning protsessual xususiyatlari va bunda advokatning mediator sifatidagi ishtiroki. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(4), 503–512.

10. Владимирова, М. О. (2014). Медиативное соглашение в системе гражданско-правового регулирования [Дис. … канд. юрид. наук].

11. Калашникова, С. И. (2010). Медиация в сфере гражданской юрисдикции [Дис. … канд. юрид. наук]. Екатеринбург.

12. Колясникова, Ю. С. (2009). Примирительные процедуры в арбитражном процессе [Дис. … канд. юрид. наук]. Екатеринбург.

13. Лазарев, С. В. (2006). Мировое соглашение в гражданском судопроизводстве [Дис. … канд. юрид. наук]. Екатеринбург.

14. Шумова, К. А. (2016). Принципы медиации [Дис. … канд. юрид. наук]. Саратов.